

15. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 606-ish, 117-varaq.
16. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 608-ish, 107-varaq.
17. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 606-ish, 22-23-varaqlar.

HUDUDIIY IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMI VA BOSHQARUV ISLOHATLARINING SAMARADORLIGI: SURXONDARYO VILOYAT MISOLIDA

Annayeva Zarifa Musurmonqulovna

*Termiz Davlat universiteti katta o'qituvchisi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

Sa'dullo Habibullayev

Termiz davlat universiteti Tarix yo'nalishi magistranti

<https://orcid.org/0009-0003-1968-589X>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati misolida hududiy ijtimoiy himoya tizimi va boshqaruv sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi tahlil qilingan. Bunda ijtimoiy himoya mexanizmlarining aholi turmush darajasini oshirishdagi ahamiyati, hududiy davlat organlari faoliyatida shaffoflik va samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni o'rganadi. Shuningdek, mahalliy darajadagi islohotlarning ijtimoiy barqarorlik va kambag'allikni kamaytirishdagi o'rniga e'tibor qaratilgan. Tahlil natijalari asosida muammoli jihatlar, mavjud imkoniyatlar hamda tizimni yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Davlat, jamiyat, islohot, iqtisod, mahalla, tibbiyot, Temir daftar, yoshlar, bandlik, xotin-qizlar, aholi.

Аннотация: В данной статье на примере Сурхандарьинской области проанализирована эффективность реформ, реализуемых в сфере территориальной системы социальной защиты и управления. Рассматривается значение механизмов социальной защиты в повышении уровня жизни населения, а также меры, направленные на обеспечение прозрачности и эффективности деятельности территориальных органов государственной власти. Кроме того, уделяется внимание роли реформ на местном уровне в обеспечении социальной стабильности и сокращении бедности. На основе результатов анализа выявлены проблемные аспекты, существующие возможности и

разработаны рекомендации по дальнейшему совершенствованию системы.

Ключевые слова: государство, общество, реформа, экономика, махалля, здравоохранение, «Темир дафтар», молодежь, занятость, женщины, население.

Abstract: This article analyzes the effectiveness of reforms being implemented in the field of regional social protection systems and governance, using the example of the Surkhandarya region. It examines the importance of social protection mechanisms in improving the living standards of the population, as well as measures aimed at ensuring transparency and efficiency in the activities of regional state authorities. In addition, attention is given to the role of local-level reforms in promoting social stability and reducing poverty. Based on the results of the analysis, problematic aspects, existing opportunities, and recommendations for further improvement of the system have been developed.

Keywords: state, society, reform, economy, mahalla, healthcare, Iron Notebook, youth, employment, women, population.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ijtimoiy himoya — keng ma'noda mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan hamda jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui. Boshqacha aytganda, davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli

ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rligini anglatadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohadagi o'zgarishlar keng miqyosdagi islohotlarni amalga oshirish natijasi bo'lib, jamiyatimiz hayotini tubdan o'zgartirib, muhim yangilanishlar jarayoniga asos soldi. Respublika tarixini ayrim hududlar, shaharlar, viloyatlar misolida o'rganish, shubhasiz, tarixning yanada chuqurroq yoritilishi uchun imkoniyat yaratadi. Respublikamizning janubiy hududi hisoblangan Surxondaryo viloyatining mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tahlil etish tufayli mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayoni va ularning natijalarini o'rganish imkoniyati yuzaga keldi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan mamlakatni rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi va uning beshta ustuvor yo'nalishi barqaror taraqqiyotni ta'minlashda muhim dasturilamal bo'ldi. Harakatlar strategiyasining bosh maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Harakatlar strategiyasida aholini ijtimoiy muhofaza qilish, ularga qulay ish sharoitlarini yaratib berish chora-tadbirlarini amalga oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi[1]. Ushbu dasturiy hujjat ko'plab sohalarda o'z yechimini kutayotgan masalalar va ularni hal etishga doir izchil chora-tadbirlarni qamrab olgani bilan ahamiyatlidir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bir qator asarlarida[2] ta'kidlanganidek, ijtimoiy sohani rivojlantirishda aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiyasi, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining

muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini ko'tarish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot siyosati o'zining ijobiy jihatlarini ko'rsatdi, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, keskin tabaqalanishga to'siq qo'yish imkoniyatiga ega bo'lindi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, jumladan, qishloq xo'jaligi, ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma va ish bilan ta'minlashni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar Surxondaryo viloyatida ham o'z aksini topmoqda. Viloyatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning samaradorligini tahlil qilish, uning natijalari va mavjud kamchiliklarini o'rganish dolzarb bo'lgan masala hisoblanadi. Surxondaryo viloyatida aholi turmush tarzining yaxshilanishi, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish ham dolzarbdir.

Surxondaryo viloyatida ham mahalliy organlarning ijtimoiy sohada ham aholining shart-sharoitlarini yaxshilash borasida ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, sog'liqni saqlash tizimini yanada yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan islohotlar aholining tibbiy xizmatlardan samarali foydalanishini ta'minlashga qaratilgan. Axborot va tibbiy xizmatlar ishlab chiqarish sohasida zamonaviy kasalxonalar, poliklinikalar va diagnostik markazlar qurilayotgan bo'lib, ular aholiga sifatli tibbiy yordam ko'rsatib kelmoqdalar[3].

Shuningdek, qishloq va shaharlarda tibbiy xizmatlar o'z vaqtida va samarali bo'lishi uchun shahar va tumanlar darajasida tibbiy yordam berish markazlari, mobil tibbiy xizmatlar va profilaktika loyihalari ishlab chiqilgan.

Aholi orasida sog'lom turmush tarziga yo'naltirish, jismoniy faollik va ovqatlanishni yaxshilash, alohida ravishda yoshlar va bolalar

o'rtasida profilaktik tadbirlar o'tkazish ishlari yo'lga qo'yilgan.

Hozirgi kunda xalq farovonligini, insonlarning turmush darajasini har tomonlama oshirish, buning uchun yangi ish o'rinlari, daromad manbalarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish, qishloq va shaharlarimizni obod qilish iqtisodiy strategiyamizning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Keksalar, nogironlar, og'ir ahvolga tushib qolgan insonlarni qo'llab-quvvatlash, ularga mehr va muruvvat ko'rsatish kabi ezgu an'analar bugungi kunda yangicha ma'no-mazmun, amaliy harakatlar bilan boyib, takomillashib bormoqda. Bu borada, ayniqsa, "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Besh muhim tashabbus", "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" kabi dasturlar o'z ijobiy natijasini bermoqda.

Mamlakatimizda ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangi tizim joriy etildi. Jumladan, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" dagilar bilan manzilli ishlash yo'lga qo'yildi. Ushbu tizim orqali 527 ming kishining bandligi ta'minlandi. Ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 2 barobarga, ya'ni 1,2 mln. nafarga kengaydi. Ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2016 yilga nisbatan byudjetdan 5 barobar ko'p mablag' ajratildi[4].

Surxondaryo viloyatida 2025 yilda 2 "temir daftar"ga kiritilgan 52,5 mingdan ortiq oilaga 59 milliard so'm manzilli yordam ko'rsatilgani ta'kidlandi. Mazkur oilalarning 52,2 ming nafar mehnatga layoqatli a'zolari ish bilan ta'minlangan va doimiy daromad manbaiga ega bo'lgan. Natijada sektor rahbarlarining tavsiyalari asosida xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlarining qarorlari bilan 49 mingdan ziyod oila "temir daftar" ro'yxatidan chiqarilgan [5].

Bugungi kunda viloyatda 28 ming 928 nafar xotin-qiz "Ayollar daftari", 56 ming 752 nafar o'g'il-qiz "Yoshlar daftari"ga kiritilib, ishsiz yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta'minlash choralari ko'rilmoqda [6].

O'z-o'zini band qilgan aholiga soliq imtiyozlarining berilishi, ko'plab cheklovlarning bekor qilinishi natijasida 500 ming nafar insonning rasmiy bandligi ta'minlandi. Dehqon xo'jaliklari va tomorqa

yer egalari uchun 300 mlrd. so'm imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratildi[7].

Ishsizlik nafaqasi va kasb-hunarga o'qitishda to'lanadigan stipendiya miqdori 3,5 barobarga oshirildi. Shu o'rinda fikrimizni yana bir qator raqamlar bilan boyitsak. Zero, samara taqqoslarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Aholi bandligiga ko'maklashish markazlarida ro'yxatdan o'tgan ishsiz shaxslarni, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalarda yashovchi xotin-qizlarni kasbga qayta o'qitishga sarflanadigan xarajatlarni moliyalashtirish uchun Bandlikka ko'maklashish jamg'armasidan kasb-hunar ta'limi muassasalariga grantlar ajratilish mexanizmi, "Mikrokreditbank" ATB tomonidan Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan hunarmandchilik, kasanachilik hamda ayollar tadbirkorligini mikrokreditlash tizimi joriy etildi. Vazirlik va tizim tashkilotlarining tuzilmasi bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan kelib chiqib takomillashtirildi.

Mustaqillik yillarida sog'liqni saqlash va aholi salomatligini yaxshilashga katta e'tibor berildi. O'zbekiston respublikasi Oliy majlisi tomonidan 1992-yilning 3 iyulida "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida", 1996-yil 29-avgustda "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida", 1998-yil 10-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish to'g'risida Davlat dasturi" qonun va farmonlar, "Sog'lom avlod yili", "Ayollar yili", "Sihat salomatlik yili", "Homiylar va shifokorlar yili" va boshqa yillar munosabati bilan Davlat dasturlari qabul qilindi[8].

Prezidentimizning 2021 yil 5 martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham ayollar bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirishga oid qator vazifalar belgilab berildi va bu borada amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Shuningdek, oliy ta'lim tizimida xotin-qizlarning tahsil olishini kengaytirish maqsadida 2022-2023-yilgi o'quv yilidan boshlab, ta'lim kontraktlarini to'lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz

kredit berish joriy qilindi. Bunda 2022-yilda banklarga 1 trillion 800 milliard so'm, 2023-yildan boshlab yiliga 8 trillion so'm mablag' ajratildi, shu tariqa magistraturada o'qiyotgan qizlarning kontrakt pullari ham to'liq byudjetdan qoplab berildi.

Bundan tashqari, ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo'qotgan talaba qizlarning ta'lim kontrakti mahalliy byudjetdan to'lanadi. Mamlakatimizda olima ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratildi.

Yurtimizda ota-onasidan ajragan, mehrga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim-tarbiya olishi, ish joyi va uyiga ega bo'lishi, jamiyatda munosib o'rin topishi, "Mehribonlik uylari", maxsus maktab-internatlar va "Bolalar shaharchasi"ning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlashga jiddiy e'tibor berildi. "Mehribonlik uylari" va maxsus maktab-internatlarda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish bo'yicha yangi tizim joriy etildi[9].

2023 yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tuzildi. Agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat organi etib belgilandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi qabul qilindi. Uning maqsadlardan biri – mehnatga layoqatli aholini ijtimoiy ta'minot bilan qamrab olish, ijtimoiy sug'urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam dasturlarini mustahkamlash, xususan ijtimoiy yordam tayinlash mezonlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishdan iborat.

Aholining muayyan qatlami o'rtasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha alohida tizim joriy qilindi. Bunga qo'shimcha, 2023 yil boshida barcha tumanlar sharoitiga ko'ra 5 ta toifaga ajratilib, tabaqalashgan yengilliklar berildi. Bularning natijasida o'tgan yili 1 million nafar, bu yil birinchi chorakda 210 ming aholi kambag'allikdan chiqarildi.

Har yili oilaviy tadbirkorlikka 13 trillion so'm kredit va 1 trillion 500 milliard so'm subsidiyalar ajratilyapti. "Ijtimoiy himoya reestri" orqali 2 million 300 ming muhtoj oila, xotin-qizlar, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan vatandoshlarimiz moddiy yordam bilan qamrab olindi.

Viloyatda "Ijtimoiy himoya yagona reestri"da turgan 23 ming 300 oila 4 ming 700 dan ortiq mutasaddiga birlashtirilib, amalga oshiradigan ishlari tushuntirildi. Kambag'allik darajasi nisbatan yuqori bo'lgan Muzrabot tumani yangi tizimni amalga oshirishda namunali hudud sifatida tanlab olindi va hududga viloyat idora, tashkilotlaridan 174 nafar mas'ulga birlashtirib berildi.

Muzrabot tumandagi 25 ming 926 xonadondagi 33 ming 865 oilada 155 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Ayni vaqtda 9 ming 545 nafar kishi ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lib, 5 ming 296 oila "Ijtimoiy himoya yagona reestr"ga kiritilgan. 4 ming 382 nafar nogironligi bo'lgan shaxs, 11 nafar yakka-yolg'iz va yolg'iz yashovchi nogironligi bo'lgan, 127 nafar tazyiq va zo'ravonlikka uchragan shaxs yashaydi. 4 ming 181 nafar fuqaro vaqtincha ishsizlar ro'yxatiga olingan.

Bundan tashqari, Surxondaryo viloyatida sanoat sohasida ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Masalan, viloyatda Jarqo'rg'on neftni qayta ishlash zavodi, "Sharg'un ko'mir" ishlab chiqarish korxonasi, "Xo'jaikon tuz" aksiyadorlik jamiyati, "Xonjizza" tog'-kon boyitish majmuasi kabi korxonalar sanoat tarmog'ida yetakchi o'rin olib kelmoqda.

Transport yo'llari, ko'priklar, shahar va qishloq yo'llari, elektr, gaz, suv ta'minoti, kommunikatsiya tarmoqlari kengaytirildi. Elektr energiyasi va suv infratuzilmasiga sarmoyalar kiritilib, kommunal xizmatlar yaxshilandi.

Gidroelektrostansiyalar qurilishi, tabiiy gaz va neft resurslaridan foydalanish, tog'-resurslarini qayta ishlash kabi loyihalar amalga oshirilmoqda. Suv ta'minoti, kanalizatsiya tarmoqlari, sug'orish infratuzilmasi qayta qurildi va yangilandi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rnida, mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda sezilarli

yutuqlarga erishildi. Sanoat, infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalarda yangilanishlar bo'ldi, aholi turmushi darajasi yaxshilandi, imkoniyatlar kengaydi.

Surxondaryo viloyatida aholining ish bilan bandligini ta'minlash, uning natijasida

fuqarolarni ijtimoiy himoyalash tizimini yanada takomillashtirishga alohida ahamiyat berila boshlandi. Bu borada ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirildiki, bu ishlar aholi bandligini ta'minlashda va farovon hayot kechirishining asosi bo'lib xizmat qildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Тошкент: “Адолат”, 2018. – 112 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз – Тошкент : Ўзбекистон, 2017. — 592 б.
3. Исломов У.Х. Сурхондарёда ижтимоий таълим ва соғлиқни сақлаш соҳасидаги ислохотлар. *Ўзбекистон Иқтисодий Журнал*, 2020. №6, 34-39 бетлар
4. <https://e-journal.uz/2021/04/08/ўзбекистонда-ижтимоий-соҳада-амалга/>
5. Raximov B. Surxondaryo viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Monografiya. 2025. Termiz.
6. https://uza.uz/uz/posts/surxondaryoda-49-mingdan-ortiq-oila-temir-daftardan-chiqarilgan_243263
7. Бахтиёров Б.Б. Ўзбекистонда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишнинг устувор йўналишлари. Меҳнат бозори ва ижтимоий ҳимоя. 2021.- В 45.
8. G. Mo'minova. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tarixi.- Toshkent. 2005 -y. — В. 4.
9. О.Мусурманова, Г.Тўйчиева. “Аёллар дафтари” ва “Ёшлар дафтари”ни шакллантириш бўйича услубий қўлланма. – Toshkent: YOSHLAR NASHRIYOT UYI, 2020.